

## **BARKAMOL AVLOD VOYAGA YETKAZISHDA TARBIYANING AHAMIYATI VA O‘RNI**

**Akramov Mehridin Mirzayevich**

*Buxoro viloyati Jondor tumani*

*47-umumiy o‘rta ta’lim maktabi*

*Tarbiya fani o‘qituvchisi*

### **Annotatsiya**

*Ushbu ilmiy maqolada barkamol avlod voyaga yetkazishda oila, maktab hamkorlikda ishlar olib borishi, amaliy ishlarni tarbiyada ahamiyati hamda o‘rni haqida so‘z boradi. Kalit so‘zlar: barkamol avlod, hamkorlik, oila, vatanparvarlik, mahalla, tizim, bosqaruv, tarbiya, mahorat, e‘tibor...*

### **KIRISH**

Har qaysi jamiyat, har qaysi davlat birinchi navbatda yuksak madaniyatli va ma'naviyatli insonlari bilan kuchlidir. Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati esa qadimdan ota-bobolarimiz tomonidan shakllanib kelgan asl milliy va diniy qadriyatlarimizni ahamiyati nechog'lik muhim ekanini ko'rsatmoqda. Zero, ertangi farovon hayot jamiyatni mukammal axloq tamoyillari asosida barpo qilish, oilada barkamol farzand tarbiyasi, uning jismonan baquvvat, ruhan tetik, ma'nau yetuk, aqlan va axloqan go'zal bo'lib etishi bilan belgilanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning zamiri, kelajak yosh avlodni tarbiyalash va u larni barkamol qilib o'stirishdagi muvaffaqiyati kelajak avlodning ma'naviy kamoloti hamda milliy ruhiyati darajasi bilan belgilanadi.

### **ASOSIY QISM**

Barchamizga ma'lumki, barkamol avlod tarbiyasida oila ilk maktab vazifasini o'taydi. Bolani yoshligidan yolg'on gapirmaslikka, to'g'ri fikrlashga, har bir narsadan to'g'ri foydalanishga o'rgatish, Vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish dastlab oilada amalga oshiriladi.

Tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilish, farzand tarbiyasini doimiy nazorat qilish g'oyat muhim. Farzandga internetni butunlay cheklash mumkin emas. Ta'qiqlangan narsaga nisbatan bolada qiziqishning kuchayishi tabiiy. Turli xil kompyuter o'yini, ya'ni «aksion», «strategiya» yoki «shuter» kabi bir qator o'yinlarning qay biri bo'lishidan qat'iy nazar bolani jazavaga tushish, tajovuzkorlik, ruhiy buzilishlardan asrash uchun internetdan to'g'ri foydalanishni o'rgatish muhim. Boshqacha aytganda, internet global tarmog'i insoniyat hayotiga qandaydir o'yinlarni o'ynab huzurlanish uchun emas, balki ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qiladigan ilmiy ma'lumot va axborotlarni olish imkonini yaratish maqsadida kirib kelgan. Keng

qamrovli islohotlar ta'lim-tarbiya masalalari mohiyatini oshirib, barkamol shaxsni shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratishni taqazo etmoqda. Buning uchun ta'lim jarayonida nafaqat ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar hamkorligidan iborat faol usullarni, balki ta'lim oluvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ham ta'minlovchi interfaol usullardan ham foydalanish

kerak bo‘ladi. Bugungi ta‘lim jarayoni pedagogning shaxsga bo‘lgan insonparvarlashtirilgan munosabati bolalarni sevish, ularning taqdiri uchun qayg‘urishi, bolalarga ishonchning yuqoriligi, o‘zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo‘lishi, ta‘lim oluvchilarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburlashdan voz kechish, aksincha, ijobiy rag‘batlantirishning ustunligi tufayli ko‘zlangan maqsadga erishish, bolalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo‘lish, ularni bartaraf etishning samarali usullarini qo‘llashda namoyon bo‘lsa, ta‘lim jarayonini demokratlashtirish esa o‘qituvchi va o‘quvchilar huquqlarini tenglashtirish, ta‘lim jarayonida ta‘lim oluvchilarga tanlash huquqining berilishi, o‘z fikri, nuqtai nazarini erkin bayon etishni taqozo etadi.

Noan‘anaviy ta‘lim jarayonida o‘quvchilar va o‘qituvchilar munosabatining o‘ziga xos jihati o‘quvchilar mustaqilligi va o‘quv faoliyatini boshqarish emas, balki hamkorlikni tashkil etish, ta‘lim olishda majburlash emas, balki o‘quvchilarni ishontirish, biror-bir faoliyatni amalga oshirish buyruq orqali emas, balki shu faoliyatni samarali tashkil etish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi, imkoniyatlarini chegaralash emas, balki erkin tanlash huquqini berish sanaladi. Shu jumladan maktab oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish yuzasidan rahbarlik qiladi. Bu vazifani muvaffaqiyatli bajarishda, ijobiy hal etishda ota-onalar o‘rtasida olib boriladigan tarbiyaga oid targ‘ibotlarning roli benihoyadir. Chunki ota-onalar zamonaviy, ruhiy, ta‘lim-tarbiyaviy bilimlar bilan qurollantirilmay turib, oilaviy tarbiyani yo‘lga qo‘yib bo‘lmaydi. Oilaviy-tarbiyaviy targ‘ibotda eng yaxshi oilalar namunasida ta‘sir ko‘rsatish eng maqbul yo‘ldir. Maktab mukammal tashkilot sifatida barcha tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etishi lozim. O‘z o‘quvchilar jamoasini uyushtira olgan, jamoatchilikni bolalar tarbiya siga yo‘naltira olgan, ularning ota-onalarini yaxshi bilgan maktab ma‘muriyatigina tarbiyaviy yutuqlarni qo‘lga kiritadi. O‘qituvchi otaonalarning faol yordamisiz bolalar barkamolligini ta‘minlay olmaydi. Bu o‘rinda tarbiyachining o‘zini-o‘zi tarbiyalashi lozimligini ham esdan chiqarmaslik kerak. O‘ziga nisbatan talabchan muallim ota-onalar bilan hamkorlikda o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, yangilikni sezish, tashabbuskorlik hamda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish maqsadida ularga qat‘iy talablar qo‘yish uchun ma‘naviy huquqqa ega bo‘ladi. Maktabni oila bilan bog‘lovchi vosita bu o‘qituvchidir. Biz

bilamizki hamma narsa mahalladan boshlanadi. Yoshlar tarbiyasi ular ma‘naviy kamolotining samarali yo‘llaridan biri davlat huquq-targ‘ibot organlari, xalq ta‘lim tizimi hamda mahallalarning jamoat tashkilotlarining yaqin hamkorligidir. Bo‘lg‘usi kelajakda, jamiyatimizda komil insonni tarbiyalashga har bir oila, mahallaning ahamiyati katta. Yoshlarni avlodni yaxshi xulqli, davlat ramzlariga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish kerak, chunki bularsiz tarbiyada maqsadga erishib bo‘lmaydi. Yosh avlodni tarbiyalashda "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" konsepsiyasi jarayonida ularning har bir vazifalari bor. Masalan: -avvalambor oilada sog‘lom muhitni rivojlantirish, bir-birlariga g‘amxo‘r bo‘lish; -farzandlarga dunyoviy bilimlar berish, ma‘naviyatli inson bo‘lib yetishish;

-bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish va vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish;

-bolalarning bo‘sh vaqtlarida qo‘shimcha ta‘lim berish, mahalla faollari bilan bolalarning ta‘lim-tarbiyasiga oid majlislar o‘tkazib, muammolarni hal etish;

-mahalla tomonidan o'quvchilarga ko'rik-tanlovlar, bayram, sport musobaqalarini o'tkazish.

A. Avloniyning: "Tarbiya biz uchun yo hayot , yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" iborasi oila, maktab, mahalla tamoyiliga aylanishiga erishildi. Hozirgi kunda bolalarning tarbiyasiga mahalla, jamoatchilik juda katta yordam ko'rsatmoqda. Jamoatchilikda yosh bolalarni tadbqiq etish, sinfdan tashqari ishlar, tashkilotchilik bilan shug'ullanirish maqsadga muvofiq. Yangilangan ta'lim to'la ma'noda yangicha tafakkur, sog'lom fikr demakdir. Bilim olish va olingan bilimni mamlakatimiz xizmati yo'lida xizmat qildirish oliy insoniylik burchidir. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishning muhim shartlaridan biri chet el maktabi va pedagogikasi tajribalarini o'rganishdir. Bugungi kunda biz uchinchi Uyg'onish davri ostonasida turibmiz. Agar O'zbekiston Prezidentining keyingi besh yilda hayotimizning birgina yo'nalishi, ya'ni ma'rifat, ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish yo'lida imzolagan qonun, farmon va qarorlari, tasdiqlagan Davlat dasturlari, ilgari surgan yangidan-yangi tashabbuslarining mag'zini to'la chaqib ko'rsak ham, navbatdagi Ma'rifat Renessansining markazi Yangi O'zbekiston ekaniga hech kimda shubha qolmaydi.

### **XULOSA**

Muxtasar qilib aytganda, maktab shaxsning barkamol kamol topishga, o'sib kelayotgan avlodning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga, shuningdek, ularning bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan. Chunki, maktab uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy vazifasi o'quvchi yoshlarga ta'lim va tarbiya berish bilan birga ularning maktab va sinfdan tashqari bo'sh vaqtini sarmazmun o'tkazish, yoshlarning ongiga milliy g'oya va vatanparvarlik tuyg'ularini singdirishdan iboratdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh.Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi" . T.2022-yil. 2. Karimov I. A. Milliy istiqloq mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., O'zbekiston. 2000. 5-6-b.
- 3.B.Qosimov. "Milliy uyg'onish". "Sharq" 2004-y
- 4.R.J.Ishmuhammedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. -T.: TDPU, 2004-y